

XORAZM SAN'ATIDA XIVA LAZGISINING O'RNI VA AHAMIYATI

Doulov Ulug'bek Hayitboyevich*O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**Urganch filiali 3-bosqich talabasi*

Annatatsiya: Ushbu maqolani o'qish davomida siz Xorazm raqs san'ati merosi bo'lmish Xiva lazgisi tarixi, uning shakllanish jarayoni, ijro usullari, ijrochilari haqida ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Xiva, lazgi, san'at, raqs, uslub.

Annotation: While reading this article, you will get scientific information about the history of Khiva dance, the heritage of Khorezm dance art, its formation process, performance methods, performers.

Key words: Khiva, Lazgi, art, dance, style.

Аннотация: Прочитав данную статью, вы получите научную информацию об истории хивинского танца, наследии хорезмийского танцевального искусства, процессе его формирования, методах исполнения, исполнителях.

Ключевые слова: Хива, Лазги, искусство, танец, стиль.

Xalqimiz madaniyatga boy xalq. Yurtimizning qay go'shasiga bormaylik, o'ziga xos an'ana, betakror qadriyatlarga ro'baro bo'lamiz. Shu jumladan, har bir hududning o'z milliy raqsi va milliy liboslari ko'nglimizni shod etadi. Raqs san'atining tarixi esa bevosa uni yaratgan xalqning tarixi bilan bog'liq.

O'sib kelayotgan yosh avlod ongu shuuriga ezgulik va nafosat, estetik-ma'naviy kamolotga muhabbat tuyg'ularini singdirishda o'zbek milliy raqs san'atining o'rni hamda ahamiyati beqiyos. Milliy raqlarda xalqimizning eng munavvar qadriyatlari, insoniy fazilatlari, milliy an'analari ifodalananadi.

Qadimiy asoslarga ega bo'lgan xorazmliklar raqsi asrlar davomida izchil sayqallanib, kelishi natijasida hozirgi kunga kelib Xorazm raqs matabini yaratishga zamin yaratdi. Badiiy jihatdan xalqning ma'naviy qadriyatlarni, tarixiy asoslari va o'ziga xos xususiyat uslubiyotlariga ega bo'lgan tarixiy-etnografik mezonlar asosida rivojlanib, tarkib topgan bu raqs ajdodlarning milliy ma'naviy merosi hisoblanadi.

Xorazmda san'atni sevmagan, unga raqsga tushmagan, uning biror bir sohasini egallamagan kishi bo'Imaganligi sababli har bir oiladagi ota-onalar o'z farzandlariga xalq o'yini, qo'shiqlari, raqlarini o'rgatib o'ziga xos oilaviy maktablar yaratganlar. Bu zaminda qayroqchilar, surnaychilar, raqqoslar, mazxarabozlar oilasi shakllanganishiga turtki bo'lgan.

Xiva bundan 2500 yil ilgari bunyod etilgan tarixiy shahardir. U faqat respublikamizninggina emas, balki butun jahonning nodir, go'zal bir obidasi,

durdonasidir. Xiva hashamatli, naqshinkor saroylari, ko‘k serjilo minoralari, ming yillik ustunlarga suyangan masjidlari bilangina emas, beqiyos san’ati, o‘ziga xos “Lazgi”si bilan ham mashhur.

Har bir xalqning raqsi o‘sha xalqning urf-odatlaridan, tabiiy sharoitdan kelib chiqadi. Shunga monand Xorazmdagi Xiva lazgisi ham xalqning madaniyati va san’atini o‘zida aks ettirgan. Xiva lazgini har bir mahalla, har bir xonodon yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan odamlarning barchasi o‘ynaganlar. Qaysi marosim, urf-odatlarda bo‘lmasin ushbu raqs turi ijro etilgan. “Xonlik davridan Xiva lazgisini bobo-yu momolar o‘ynab, to‘nka ustiga chiqib o‘ynash kabi usullari shakllanib bizgacha yetib kelgan”[1;35b]

Xiva lazgisni asosan bobo-momolar ijro qilishgan. Unda o‘ziga xos kiyinish uslubi bo‘lgan. Bobolar boshiga qora chugirma, usiga chopon, oyog‘iga mahsi, belida shoyi belbog‘, ustiga oq bog‘ichli kiyim va yaktak kiyganlar. Momolar esa ustiga rangli ko‘ylaklar va uzun chopon, boshlariga dudorli, parli, popukli, bezakli taxyo (Xorazm do‘ppisi) kiyishi, yelkalariga shavkala (taqinchoq) taqishi shart bo‘lgan. Bosh kiyimiga turli qushlarning patlarini osishgan. Bu esa kishilik jamiyatining ilk bosqichlarida paydo bo‘lgan totemizmdan meros qolgan urf-odatlardan biri sanaladi. Qushlardan ukki, o‘rdak gajagi, dudori, parlar yomon ko‘zlardan asrovchi vosita sanalgan va yosh bolalarning beshigi, do‘ppisiga, kelinlar bosh kiyimining chap, ya’ni yurakka yaqin tarafiga osib qo‘yilgan. Shavkala, taqinchoqli taxyo, par, dudor, popuk, bargaklar Xorazm ayollar libosining o‘ziga xos belgilari hisoblangan. Hozirgi davrda ular raqqosalarning, ayniqsa «Lazgi» raqsi ijrochilarining asosiy bezaklaridandir.

Yuksak madaniyatli o‘lkaning san’ati ham buyuk bo‘ladi. Atrof-muhitdagi rang-barang go‘zallik, me’mor-u hunarmandlarning nozik san’ati raqs ijodkorlarini ham ilhomlantirgan. Inson o‘z qo‘li bilan yaratgan mo‘jizalardan bahra olib, qalbida tug‘ilgan hayajonni raqsga ko‘chirdi. Masalan, minoraga qiyosan bir joyda turganligini ta’kidlash uchun oyog‘ini qimirlatmasdan, yuz, ko‘z, qo‘l harakatlari bilan o‘ynaladigan eng murakkab raqs uslubi yaratildi. “Lazgi” kuyi bu yangi raqs uslubini ham bag‘riga oldi. Shunday qilib, “Xiva lazgisi” maydonga keldi. “Xiva lazgisi”ni “Minor lazgisi” deb ham atashadi. Unga raqsga tushish raqqos va raqqosadan tug‘ma iste’dodni talab qiladi. Bir joyda turib, faqat qo‘l, yuz, bosh, tana orqali yurak tug‘yonlarini ifodalanadi. Bu Xorazmda, ayniqsa, Xivada keng tarqalgan raqs uslubidir. Bu raqsga hissa qo‘shgan ustoz san’atkorlar qatoriga Jummi shix, Sheroziy, Mahmudjon Safoyevlar, Gulsara Yoqubova, Tozagul O‘razboyeva, Anajon Sobirova, Yusuf Jabborov, Rohatoy Avazova, Nodira Abdullayevalar va boshqalarni aytib o‘tishimiz mumkin. Ular an’anaviylik va o‘z davrida zamонавиylikni uyg‘unlashtirgan holda ijodlarini davom qildirganlar. Izlaridan ko‘plab shogirdlarni tarbiyalaganlar. Bunda ustoz va shogird an’analariga amal qilib, raqs an’analarini avlodlarga yetkazishda o‘z hissasini qo‘shganlar.

Xiva lazgisi harakatlari boshqa lazgi turlaridan keskin farq qilgan.[3;87b] Ushbu lazginining o‘zining ijro usuli va yo‘li bor. Asosan chol-u kampir raqsga tushadilar. “Lazgi” kuyi yangraydi. Barmoqlar panjalarga jon kirgandan keyin boshlanadi. Raqqosa qo‘llarini havoda musiqaga mos holga keltiradi, qo‘llari bilan minorani ko‘rsatganday harakat qiladi va birdan qotib qoladi. Qomat tik, qo‘llar tepada, bosh qimirlamay tepaga ko‘tarilgan, go‘yo minoraning uchiga qaraganday. Barmoqlar, birin-ketin bilaklar qimirlay boshlaydi. Gavda, yelka qimirlamasdan, faqat barmoqlar, qo‘l bo‘lak-bo‘lakka bo‘linib, xuddi g‘ishtni kesib otayotganday raqs harakati boshlanadi. G‘ishtni goh yuqoriga, goh pastga otganday panjalar raqsga tushadi. So‘ngra harakat yelkaga o‘tadi, yelkalar oldinma keyin harakatlanib, bo‘yin tebratishga o‘tiladi va raqs harakatlari, takrorlanaveradi. Harakatlar endi tanaga o‘tadi. Qo‘l, panja, barmoq, bilak, yelka harakatlantirilib, so‘ng tana harakatga keladi. Bularning bari bosh osmonga qaragan holda bajariladi. Nihoyat qars urilib, birinchi bo‘lim tamom bo‘ladi. Ikkinchchi bo‘limda raqqosa oyoqni tebratmasdan xuddi oyoqni o‘ynatayotganday harakat qiladi. Bobo ishdan kelsa, momo o‘ynab turibdi. “Charchab kelgan bobo lazgi kuyini eshitib, momoning berilib o‘ynayotganini ko‘rib hayratga tushadi. Momoning atrofini aylanib, ilxomlanib to‘nini yechib raqsga tusha boshlaydi. Bu raqs asosan qo‘l harakatlari bilan o‘ynaladi. Nozik ijro uslubini yana yuz mimikalari o‘zida aks ettiradi. Chunki o‘yin mobaynida bir-biridan qochish, mehr bilan qarash, erkalanish holatlari kuzatiladi”[2;67b]

Xiva lazgisi hozirgi vaqtida juda ommalashgan. Boisi Xiva lazgisini o‘ynay olmaydigan, uni bilmaydigan odam yo‘q. Bu raqs har bir xorazmliklarning qon-qoniga singib ketgan. Bu lazgini yakka, ommaviy, juft bo‘lib, bolalar, yoshlar, ayollar, yigitlar, momolar, chollar, o‘ynashi mumkin. Shuning uchunam bu lazgi xalq lazgisi deb ham ataladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Xorazm xalq raqslari, musiqasi, maqomlari, laparlari, lazgilari, masxarabozlik o‘yinlari, urf-odatu marosimlari Xorazmda ko‘proq qadimiylik alomatlarini saqlagan. Bugungi kunda nafaqat Xorazmda, balki xorijiy davlatlarda ham Xorazm raqsi xususan, Lazgi o‘yinlarining dovrug‘i baland. Negaki, jon-tomirida raqsning sehrli tarovati jo‘shib turgan xalqning raqsga bo‘lgan mehr-muhabbati yanada katta. Qalbi sof, jo‘sqin kayfiyatli xorazmliklar barchaga yaxshilikni, shodlikni ularshadi. Bugun ularning mashaqqatli mehnatlari samarasi o‘laroq lazgi o‘zbek raqs san’atining gultoji degan ulug‘ nomga sazovor bo‘ldi. Bizning yurtimiz madaniyat va san’at namunalariga boy diyor. Ayniqsa, yuqorida aytganimizdek raqs san’atining yaralishi insoniyat paydo bo‘lgan davrdan hozirgi kungacha o‘z taraqqiyot bosqichini bosib kelmoqda. Raqlar ichida eng jozibalisi bo‘lgan Xorazm lazgisini yanada chuqur o‘rganish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ekspeditsiyalar tashkil qilish kerak. Mazkur o‘rganish ishlarining natijasida ilmiy risolalar, maqlolar yozishni yangi bosqichga ko‘tarish lozim, deb hisoblaymiz.

Xorazm raqs san'ati milliy merosimizning ajralmas qismidir. Unda o'tmish an'analari, chuqur mazmun kasb etuvchi qadriyatlar aks etadi. Uning asosini qanchalik o'rganmaylik shunchalik yangidan yangi qirralari ochilib o'zining naqadar boy san'at ekanini ifoda etaveradi.

Har qaysi millatning urf-odatlari, ma'naviyati, tafakkuri shunchaki bir bo'shliqda shakllanmaydi. Uning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy manbalar asos bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan 1997-yil "O'zbek milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida" gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon ijrosi yuzasidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1997-yil 21-fevraldaggi 101-sonli "O'zbekistonda milliy raqs va Xoreografiya san'atini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori o'zbek milliy raqs san'atini, xususan, lazgi istiqboli hamda rivojiga asos bo'ldi.

Milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, lazgi raqs san'atining tarixiy an'analarini va usullarini tiklash, avaylab-asrash hamda boyitish, millatimizning o'ziga xos sharqona fazilatlari, boy ma'naviyatiga monand raqlarni targ'ib etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, milliy raqs yo'naliishlari bo'yicha uzoq muddatli, maqsadli dasturlar tayyorlash, raqs san'atini xalqimizning yuksak ma'naviyati va nozik didiga zid bo'lgan, yuzaki, noo'rin taqlidga asoslangan xattiharakat va liboslar xurujidan saqlash, maxsus ta'lim tizimini takomillashtirish, o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan va avloddan avlodga noyob meros sifatida o'tib kelayotgan jozibali raqs namunalarini toplash, boyitish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga bu beba ho boyliklarga chuqur hurmat va havas tuyg'ularini singdirish, ularda milliy ma'naviyatimiz, qadriyatlarimizga nisbatan ehtirom xislarini yuksaltirish, mamlakatimizning barcha hududlaridagi raqs yo'naliishlarini asrash, avaylash, shu asosda yangi badiiy jamoalar tuzish, mustaqillik ma'naviyatini va istiqlol g'oyalarini tarannum etuvchi, xalqimizga estetik zavq bag'ishlovchi zamonaviy o'zbek milliy raqs maktabini yaratish..." ishlari va tarixiy ahamiyatga ega.

Yana shunday milliy raqsimizni yuksalishiga keng yo'l ochadigan qaror Prezidentimiz tomonidan 2017-yil 31-mayda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3022-sonli qarori qabul qilindi. Bu qarorda O'zbek milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san'at rivojiga katta hissa qo'shgan taniqli san'atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko'rik-tanlovlarda yuqori o'rnlarni egallagan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash to'g'risida batatsil bayon qilingan. Bunday imkoniyatlar bizning milliy raqs san'ati sohasida ijod qilayotgan san'atkorlarga, yosh ijodkorlarga ulkan imkoniyat eshiklarini ochib berdi.

Ushbu farmonning qabul qilinishi tarixda yashab ijod qilgan san'at ustalarining hayoti va faoliyati bilan tanishishni ularning ijro uslublarini o'ziga xos mukammallikni

o‘rganishni talab etadi. Bu esa o‘zbek raqs va xoreografiyasining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.G.Matyuoqubova, Sh.Eshjonova Lazgi-Urganch2017.
2. Р. Каримова хорезмский танец -Т 1981.
- 3.S.P.Tolstov Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab-T 2012.
- 4.T.Qilichev Xorazm xalq teatri- T 2000.